



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 190 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi	10
<i>Mirzaraxonova Maftuna Ibroximjon qizi</i>	
Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv	13
<i>Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li</i>	
O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...	19
<i>Mahmudova Shoirra Shavkat qizi</i>	
O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi.....	25
<i>Gadoyeva Muborak Jumaqulovna</i>	
O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari.....	30
<i>Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna</i>	
Xurshid Do'st Muhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi.....	34
<i>Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati	37
<i>Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna</i>	
"Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	41
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari.....	46
<i>Joldasov Ixtiyor Suyundikovich</i>	
Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari	50
<i>N. Asadov</i>	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik mezonlari.....	53
<i>G. Xamidova</i>	
Gamifikatsiya elementlarining bakalavr talabalarini raqamli resurs yaratishga motivatsiyasiga ta'siri	56
<i>Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi</i>	
The Influence of Family Parenting Style on the Formation of Primary School Students' Personality	59
<i>Berdiyeva Mohloroyim Mirzohid qizi</i>	
Noto'liq oilalardagi onalarning tarbiyaviy uslublari va farzandlarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi (O'zbekiston namunasida).....	64
<i>Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o'g'li</i>	
Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.....	69
<i>Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna</i>	
Matematika ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari.....	73
<i>Mirzayeva Shahlo, Qodirova Muattar Ithom qizi, Rovshanova Yulduz Shovkat qizi</i>	
O'qishga motivatsiya tushunchasi uning nazariy-psixologik tahlili.....	77
<i>Azimova Rushana Zokirjon qizi</i>	
Oliy ta'lim talabalarida akademik prokrastinatsiyaning prediktorlari: akademik motivatsiya, umid va shaxs xususiyatlari	81
<i>Shodiboyev Shohruh Shuhrat o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar integratsiyasini ta'minlash metodikasi.....	86
<i>Qahhorova Sevara Alimardonovna</i>	
O'quvchi-yoshlarni virtual olam ta'siridan himoya qilishning nazariy asoslari.....	90
<i>Isayeva Gulii Parpiyevna, Ravshanov Umidjon Abdiqodir o'g'li</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni oshirishda mantiqiy masalalarning o'rni	93
<i>Xilvatova Go'zal Sultonovna</i>	
Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish	97
<i>Jurayev Bobomurod Tojiyevich</i>	
Bolalarda ona tilida tinglash hissini rivojlantirish usullari	101
<i>Nurmatova Muxlisa Akmal qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish (Kahoot, Quizlet va Moodle platformalari misolida)	106
<i>Yusupova Shahnoza Abduxafizovna</i>	
Sport maktablarida 16–18 yoshli nayza uloqtiruvchi sportchi-qizlarda portlovchi kuchni rivojlantirish	111
<i>Tursunova Surayyo Botir qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashda "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari: amaliyot tahlili	115
<i>Gaffarov Azizjon Muhammadsaidovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining faoliyatini samarali tashkil etishning nazariy jihatleri (Learning outcomes) asosida	124
<i>Rabbimova Shaxnoza Soyib qizi</i>	
Bo'lg'usi o'qituvchilarda axloqiy madaniyat fazilatlarini qaror toptirishning pedagogik mexanizmlari	128
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Yengil atletikachilarning musobaqa jarayonida tibbiy-pedagogik monitoringini takomillashtirish	132
<i>Mamadaliyev Abror Akbarjonovich</i>	
Sun'iy intellekt yordamida rus tilini o'qitish va uning samaradorligi	137
<i>Yagafarova Nazilya Rafailovna, Nazarov Sardor, Onorboyev Kamronbek</i>	
O'quvchilarda ilmiy dalillarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	142
<i>Baymurotova Mukaddas Xamdamovna</i>	
Ilmiy muxokamalarda pragmatik kompetentlikning roli	150
<i>Eshbo'riyeva Aziza Muhiddinovna</i>	
Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni	155
<i>To'rabekova Aziza Mirzabek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda motivatsiyani shakllantirishda interaktiv metodlarning o'rni	159
<i>Qamchibekova Roziyaxon Xasanboy qizi</i>	
Проблема разграничения понятий "концепт" и "понятие" в современной лингвистике: лингвосомиотический и когнитивно-дискурсивный анализ	164
<i>Якунина Ангелина Алишеровна</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida amaliy bezak san'ati naqsh elementlarini raqamli qayta ishlash va arxivlashtirish	169
<i>Jabbarov Rustam Ravshanovich</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda Design Thinking texnologiyasining metodik imkoniyatlari	176
<i>Amanbayeva Oydin Urazali qizi</i>	
Tez qalamchizgi mashqlarida psixologik-pedagogik yondashuvlarning ahamiyati	181
<i>Suyunov Navro'z Alisher o'g'li</i>	
Innovatsion yondashuv orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish konsepsiyasi	186
<i>Xalilov Lenar Shevketovich</i>	

ILMIY MUXOKAMALARDA PRAGMATIK KOMPETENTLIKNING ROLI

Eshbo'riyeva Aziza Muhiddinovna

Termez iqtisodiyot va servis universiteti, 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'qitishda pragmatik kompetensiyaning nazariy va pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Tilni mukammal egallash nafaqat grammatik va leksik bilimlarni, balki kommunikativ vaziyatga mos ravishda fikr bildirish, muloqot madaniyatiga rioya qilish hamda diskurs savodxonligini shakllantirishni ham talab etadi. Tadqiqotda pragmatika va pragmatik kompetensiya tushunchalarining mazmuni, ularning ilmiy talqinlari hamda til ta'limidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, pragmatik kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari - xushmuomalalik strategiyalari, kommunikativ niyat, akademik etiket va emotsional ta'sir vositalari ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. Maqolada pragmatik kompetensiyani rivojlantirish xorijiy til o'rganuvchilarning samarali muloqotga kirishishi va akademik madaniyatni egallashida muhim omil ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: pragmatik kompetensiya, ilmiy munozara, kommunikant, adresant, xushmuomalalik, ilmiy etiket, diskurs, savodxonlik, emotsiya, akademik madaniyat.

Abstract: This article analyzes the theoretical and pedagogical foundations of pragmatic competence in foreign language teaching. Mastering a language requires not only grammatical and lexical knowledge, but also the ability to express ideas appropriately according to communicative situations, follow the norms of communication culture, and develop discourse literacy. The study examines the concepts of pragmatics and pragmatic competence, their scientific interpretations, and their role in language education. In addition, the main components of pragmatic competence - politeness strategies, communicative intention, academic etiquette, and emotional impact tools - are analyzed on the basis of scholarly literature. The article substantiates that the development of pragmatic competence is an important factor in ensuring effective communication and acquiring academic culture among foreign language learners.

Key words: pragmatic competence, academic discussion, communicant, addresser, politeness, academic etiquette, discourse, literacy, emotion, academic culture.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и педагогические основы прагматической компетентности в обучении иностранным языкам. Совершенное владение языком требует не только грамматических и лексических знаний, но и умения выражать мысли в соответствии с коммуникативной ситуацией, соблюдать культуру общения и формировать дискурсивную грамотность. В исследовании рассматриваются понятия прагматики и прагматической компетентности, их научные интерпретации и роль в языковом образовании. Кроме того, на основе научной литературы анализируются основные компоненты прагматической компетентности - стратегии вежливости, коммуникативное намерение, академический этикет и средства эмоционального воздействия. В статье обосновывается, что развитие прагматической компетентности является важным фактором эффективного общения и формирования академической культуры у изучающих иностранные языки.

Ключевые слова: прагматическая компетентность, научная дискуссия, коммуникант, адресант, вежливость, академический этикет, дискурс, грамотность, эмоция, академическая культура.

KIRISH

Kommunikatsiya har qanday jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, insonlar muayyan ehtiyoj va maqsadlar asosida o'zaro muloqotga kirishadilar. Aynan til vositasida insonlar turli kommunikativ vaziyatlarda ko'plab suhbatdoshlar bilan muloqot olib boradilar. Biroq samarali muloqot faqat so'zlardan foydalanish bilanгина cheklanmaydi. Insonlar nimani aytishni emas, balki uni qanday, qachon, qayerda va kimga aytishni ham bilishlari zarur. Shu bois kommunikatsiya ma'lum so'zlarni ketma-ket joylashtirish orqali gap tuzishdan ancha murakkab hodisa hisoblanadi. Til foydalanuvchilari muloqotning nafaqat mazmunli, balki kommunikativ jihatdan mos va maqbul bo'lishini ta'minlovchi ijtimoiy-me'yoriy qoidalarga amal qilishlari lozim. Mazkur jarayon, ya'ni fikrni muayyan vaziyat va sharoitga mos tarzda ifodalash usullarini o'rganish pragmatika deb ataladi.



Pragmatika asosan nutq birliklarining lug'aviy ma'nosidan tashqaridagi mazmuni o'rganadi; boshqacha aytganda, u muayyan jamiyat yoki kommunikativ kontekst doirasida aytilgan gap orqali aslida nima nazarda tutilganligini tahlil qiladi. Shu sababli, kommunikativ me'yor va konvensiyalarni yaxshi bilish nutq egasiga samarali hamda mos muloqotni tashkil etish, uni davom ettirish va suhbatdoshni to'g'ri tushunish imkonini beradi. Mazkur qobiliyat odatda pragmatik kompetensiya deb yuritiladi.

Zamonaviy ilmiy-kommunikativ makonda ilmiy muhokama va akademik muloqot nafaqat bilim almashish vositasi, balki ilmiy tafakkur, tanqidiy yondashuv va professional kompetensiyaning muhim ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari, xalqaro ilmiy hamkorlikning kengayishi hamda akademik mobillikning ortishi ilmiy nutq madaniyatiga qo'yiladigan talablarni sezilarli darajada kuchaytirdi. Shu sababli ilmiy muhokamalarda so'zlashuv madaniyati va pragmatik kompetentlik masalasi tilshunoslik, pedagogika, psixolingvistika va kommunikativ pragmatika sohalarida dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida tadqiq etilmoqda.

Ilmiy muhokama tushunchasi ilmiy masala yuzasidan argumentlash, dalillash, tahlil qilish va xulosa chiqarishga qaratilgan kommunikativ jarayon bo'lib, unda ishtirokchilardan nafaqat lingvistik bilim, balki pragmatik moslik, diskursiv strategiyalar va akademik etikaga rioya qilish talab etiladi. Chunki ilmiy kommunikatsiyada fikrning mantiqiyliги bilan bir qatorda uning qanday shaklda, qaysi vaziyatda va qanday kommunikativ maqsad asosida ifodalanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Til o'qitish metodikasida asosiy e'tibor lingvistik yondashuvdan kommunikativ yondashuvga ko'chganidan so'ng pragmatik kompetensiyaning ta'limdagi mavqei va ahamiyati sezilarli darajada ortdi. Pragmatik kompetensiyani til ta'limining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etgan holda, ushbu tadqiqot uning umumiy til kompetensiyasi va til ta'limidagi o'rni hamda ahamiyatini tahlil qilishga qaratilgan. Shu maqsadda mazkur tushunchaga nufuzli olimlar tomonidan berilgan asosiy ta'riflar hamda pragmatik kompetensiyaga ta'sir etuvchi omillar va uning til ta'limidagi rolini o'rganishga bag'ishlangan, ayniqsa, so'nggi yillardagi ilmiy tadqiqotlar ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'zlashuv madaniyati til birliklaridan adabiy me'yorlar, kommunikativ maqsad va ijtimoiy vaziyatga mos ravishda foydalanish qobiliyatini anglatadi.

Tilshunos olimlar V.V. Vinogradov, N.I. Formanovskaya, D. Hymes, M. Halliday va boshqa tadqiqotchilar nutq madaniyatini kommunikativ kompetensiyaning asosiy komponentlaridan biri sifatida talqin qiladilar.

D. Hymes tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ kompetensiya nazariyasiga ko'ra, shaxs faqat grammatik jihatdan to'g'ri gapira olishi bilan emas, balki nutqni kommunikativ vaziyatga mos qo'llashi bilan ham kompetent hisoblanadi.

Ilmiy muloqotda nutqning spontanligi emas, balki strukturaviy va mantiqiy tashkil etilganligi muhim hisoblanadi. Masalan, konferensiyalar, seminarlar yoki dissertatsiya himoyalari ilmiy fikr "tezis-dalil-xulosa" modeli asosida quriladi. Bu esa ilmiy nutqning pragmatik samaradorligini oshiradi.



Tilshunoslik va falsafa an'analari pragmatika odatda tilning muayyan kontekstda qo'llanishini o'rganuvchi soha sifatida talqin etiladi. Mazkur yondashuv ingliz faylasufi Paul Gricening fundamental ilmiy qarashlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Pragmatik kompetentlik, bunda ilmiy muxokama, ilmiy seminarlarda pragmatik kompetentlikni rivojlantirish, ilmiy munozarada adresant va resepiyentning so'zlashuv madaniyatini oshirish muhim ilmiy masala hisoblanadi. Xususan, uning "Meaning" ("Ma'no") nomli tadqiqotida til birliklarining nima sababdan ma'no ifodalashi masalasi markaziy muammo sifatida ko'rib chiqiladi. Bu esa tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, akademik madaniyatni shakllantirish, ilmiy hamkorlikni mustahkamlash bilan harakterlanadi. Shu nuqtai nazardan ilmiy muhokamadagi so'zlashuv madaniyati quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

Graisning ta'kidlashicha, "to mean" ("anglatmoq") fe'li ikki xil ma'noda qo'llanadi. Birinchisi tabiiy ma'no (natural meaning) bo'lib, bunda belgi ma'lum hodisa yoki voqe'lik bilan tabiiy bog'liqlik asosida ma'no kasb etadi. Masalan, "These spots mean measles" ("Bu dog'lar qizamiqni anglatadi") jumlasida dog'larning mavjudligi kasallikning tabiiy belgisi hisoblanadi. Ikkinchi holat esa notabiiy ma'no (non-natural meaning) bilan bog'liqdir. Masalan, "Three rings on the bell mean that the pub is closing" ("Qo'ng'iroqning uch marta chalinishi pab yopilayotganini bildiradi") jumlasida ma'no tabiiy emas, balki inson tomonidan ma'lum kommunikativ niyat asosida shakllantiriladi. Bu holatda belgi ma'lum auditoriyaga axborot yetkazish maqsadida qo'llanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

So'zlovchi ma'nosi esa nutq egasining muayyan kommunikativ vaziyatda ma'lum til birligi orqali nimani nazarda tutayotganligini ifodalaydi. Graisga ko'ra, lingvistik ma'no faqat kommunikativ niyatni ifodalash vositasi hisoblanadi. Shu sababli ko'p hollarda so'zlovchining asl kommunikativ maqsadi uning bevosita aytgan mazmuniga to'liq mos kelmaydi. Aynan shu yondashuv pragmatikaning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan "aytilgan ma'no" (what is said) va "nazarda tutilgan ma'no" (what is communicated) o'rtasidagi farqni yuzaga keltirdi.

Grais nazariyasiga ko'ra, so'zlovchi ma'nosi ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat:

- so'zlovchi tomonidan til birligi orqali ochiq ifodalangan mazmun;
- so'zlovchi tomonidan yashirin yoki bilvosita tarzda yetkazilgan kommunikativ mazmun.

Uzoq yillar davomida pragmatika falsafiy va intuitiv kuzatishlarga asoslangan tadqiqot sohasi sifatida rivojlanib keldi. XX asrning 1980-yillariga kelib esa pragmatik tadqiqotlarda kognitiv yo'nalish kuchaydi va bu kommunikatsiyaning psixologik jihatdan asoslangan modellari, jumladan "Relevance Theory" ("Dolzarblik nazariyasi")ning yuzaga kelishiga olib keldi. Aynan shu davrda "pragmatik kompetensiya" tushunchasi ham ilmiy muomalaga faol kirib keldi. Dastlab pragmatikaning tilshunoslikdagi o'rni yetarlicha e'tirof etilmagan edi. Buning asosiy sabablaridan biri Noam Chomsky tomonidan ishlab chiqilgan generativ grammatika nazariyasida "kompetensiya" va "performans" tushunchalari o'rtasidagi farqlanish bilan bog'liqdir. Chomskiy til egasining ichki til bilimi kompetensiya va ushbu bilimning real nutqdagi qo'llanishi - performansni bir-biridan ajratadi.

Keyinchalik Chomskiy "pragmatik kompetensiya" tushunchasini ham ilmiy muomalaga kiritib, til foydalanuvchilari til birliklarini muayyan kommunikativ vaziyat bilan bog'lay olish qobiliyatiga ega ekanligini ta'kidlaydi. Biroq dastlabki generativ yondashuvda pragmatik hodisalar asosan performans doirasiga kiritilganligi sababli pragmatika tilshunoslikning markaziy tadqiqot obyektiga aylana olmadi. Chunki asosiy e'tibor sintaktik kompetensiyaga qaratilgan edi.

Ikkinchi muhim sabab Jerry Fodor tomonidan ilgari surilgan ongning modulli nazariyasi bilan bog'liqdir. Mazkur nazariyaga ko'ra, inson tafakkuri mustaqil modullar asosida ishlaydi. Pragmatik jarayonlar esa:

- implikaturalarni hisoblash;
- nutq aktlarini tushunish;
- navbat almashish tizimi;
- kommunikativ niyatni aniqlash kabi ko'plab murakkab omillar bilan bog'liq bo'lgani sababli yagona modul asosida izohlab bo'lmaydi deb qaralgan.

Shu sababli pragmatika markaziy kognitiv tizimlar faoliyatiga oid hodisa sifatida talqin qilingan. Mazkur nazariy muhitda "Kognitiv pragmatika" yondashuvi shakllandi. Ushbu yo'nalish pragmatikani kognitiv va modulli yondashuv asosida ilmiy jihatdan legitimlashtirishga uringan dastlabki konsepsiyalardan biri hisoblanadi. Xususan, Asa Kasher "Kognitiv pragmatika" atamasini ilmiy muomalaga kiritgan olim sifatida pragmatik jarayonlarni modulli tizim asosida tushuntirishga harakat qilgan. U pragmatik kompetensiyani ikki asosiy turga ajratadi: sof lingvistik pragmatik kompetensiya hamda nolingvistik pragmatik kompetensiya.



Ingliz tili o'qitish metodikasida pragmatik kompetensiya nutq aktlari, savol-javob shakllari, buyruq va tasdiq konstruksiyalari, navbat almashish kabi kommunikativ hodisalarni boshqaruvchi maxsus pragmatik modullar bilan bog'liq deb talqin qilinadi. Shu tariqa pragmatika faqat falsafiy yoki intuitiv kuzatish sohasi emas, balki inson tafakkuri va kommunikativ faoliyatining muhim kognitiv mexanizmlarini o'rganuvchi ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Pragmatika til birliklarining kontekst asosidagi ma'nosini, kommunikativ niyatni va nutqning funksional qo'llanishini o'rganadi.

Amerikalik olim Ch. Morris pragmatikani semiotikaning tarkibiy qismi sifatida tavsiflagan bo'lsa, keyinchalik J. Austin va J. Searle nutq aktlari nazariyasini ishlab chiqib, pragmatik tahlilning metodologik asoslarini shakllantirdilar.

Pragmatik kompetentlik, ilmiy muxokamalarda pragmatiklik tushunchasining o'ziga xos jihatlari kommunikativ vaziyatni tushunish, mos nutq strategiyasini tanlash, suhbatdoshning ijtimoiy maqomini hisobga olish, yashirin ma'no va implikaturalarni anglash, kommunikativ maqsadni samarali amalga oshirish qobiliyatidir.

Ilmiy muhokamalarda pragmatiklik darajasi quyidagilar orqali namoyon bo'ladi: Ilmiy bahs jarayonida keskin rad etish o'rniga ehtiyotkor ("hedging") birliklardan foydalanish yuqori pragmatik kompetentlik belgisi hisoblanadi.

Masalan: "Ilmiy tahlillaringizga ko'ra, mening fikrimcha", "Ehtimoliy gipoteza", "Mazkur yondashuvni boshqa nuqtai nazardan ham ko'rib chiqish mumkinki", "Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki".

Brown va Levinsonning "Politeness Theory" nazariyasiga ko'ra, bunday yumshatish strategiyalari kommunikativ konfliktni kamaytiradi va akademik hamkorlikni mustahkamlaydi. Ilmiy diskursda terminlarning noto'g'ri qo'llanishi kommunikativ buzilishlarga olib keladi. Pragmatik jihatdan kompetent shaxs:

- terminni kontekstga mos qo'llaydi;
- izohsiz noaniq birliklardan foydalanmaydi;
- ilmiy uslub talablariga amal qiladi.

Masalan, "kompetensiya" va "kompetentlik" terminlarini farqlamaslik ilmiy muloqot sifatini pasaytiradi. Ilmiy muhokamalarning asosiy belgisi dalillangan nutqdir. Pragmatik jihatdan yetuk nutqda har bir fikr ilmiy manbaga tayanadi, statistik ma'lumotlar qo'llanadi, sabab-oqibat munosabatlari aniq ifodalanadi. Toulmin modeliga ko'ra, samarali argument: da'vo (claim), dalil (evidence), asos (warrant), qo'llab-quvvatlash (backing) komponentlaridan tashkil topadi. Shu sababli ilmiy muhokamadagi pragmatik daraja argumentning strukturasi va asoslanganligi orqali ham baholanadi. Ilmiy nutqdagi pragmatik kompetentlik mavzudan chetga chiqmaslik, fikrlarning izchil bog'lanishi va kommunikativ maqsadning saqlanishida namoyon bo'ladi.

Diskurs markerlari ba'zi nutq birliklaridan misollarni quyidagicha keltiramiz: "birinchidan", "bundan tashqari", "natijada", "shunday qilib" kabi birliklar ilmiy nutqning kohezivligini ta'minlaydi. Halliday va Hasan tadqiqotlariga ko'ra, diskursiv bog'liqlik ilmiy matn va og'zaki muhokamaning tushunariligini oshiradi. Ba'zi ilmiy bahslarda esa keskin inkor, shaxsiyatga tegish, emotsional bosim kabi holatlar uchraydi. Bu esa akademik etikaga zid bo'lib, ilmiy kommunikatsiyaning samaradorligini pasaytiradi. Kommunikantlar orasida ilmiy darajasi, yoshi, mutaxassisligi hisobga olinmasa, nutqning pragmatik samaradorligi kamayadi. Masalan, murakkab terminologiyani izohsiz qo'llash ilmiy axborotning noto'g'ri qabul qilinishiga olib keladi.

Psixolingvistik tadqiqotlarga ko'ra, kommunikatsiyaning katta qismi noverbal vositalar orqali amalga oshadi. Ilmiy muhokamalarda ovoz ohangi, pauza, ko'z bilan aloqa, mimika, jestlar ham pragmatik ta'sir kuchiga ega hisoblanadi.

Noto'g'ri noverbal signallar sifatida ishonchsizlik, agressivlik, tayyorgarlikning sustligi haqida taassurot uyg'otishi mumkin.

Bugungi kunda CEFR tizimi ham pragmatik kompetensiyani xorijiy til kommunikativ kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismi sifatida belgilaydi. Xususan:

- diskursiv kompetensiya;
- funksional kompetensiya;
- sotsiolingvistik moslik pragmatik rivojlanish indikatorlari sifatida qaraladi.

Ilmiy muhokamalarda pragmatik kompetentlikni rivojlantirish uchun ba'zi jihatlar debat texnologiyalari, case-study, akademik prezentatsiyalar, peer discussion, critical thinking metodlari samarali vosita hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilmiy muhokamalardagi so'zlashuv madaniyati va pragmatiklik darajasi zamonaviy akademik kommunikatsiyaning muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Pragmatik kompetentlik ilmiy fikrni nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri, balki kommunikativ vaziyatga mos, etik va samarali tarzda ifodalash imkonini beradi.

Pragmatik kompetentlikning rivojlanlik natijasi ilmiy hamkorlikni oshiradi, akademik konfliktlarni kamaytiradi, tanqidiy fikrlashni shakllantiradi, samarali ilmiy diskursni ta'minlaydi. Shu sababli pragmatik kompetentlikni rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, ayniqsa ilmiy muhokama va akademik muloqot jarayonlarida alohida metodik yondashuvni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Achiba, M. Learning to request in a second language: A study of child interlanguage pragmatics. 2003. Clevedon, UK: Multilingual Matters.
2. Bachman, L. Fundamental considerations in language testing. Oxford: Oxford University Press. 1990.
3. Bardovi-Harlig, K. Exploring the interlanguage of interlanguage pragmatics: A research agenda for acquisitional pragmatics. *Language Learning*, 1999. 49(4), 677-713.
4. Bardovi-Harlig, K., & Dörnyei, Z. Do language learners recognize pragmatic violations? Pragmatic versus grammatical awareness in instructed L2 learning. 1998. *TESOL Quarterly*, 32, 233-262.
5. Blum-Kulka, S., House, J., & Kasper, G. Cross-cultural pragmatics: Requests and apologies. 1989. Norwood, NJ: Ablex.
6. Chang, Y.-F. 'I no say you say is boring': The development of pragmatic competence in L2 apology. 2010. *Language Sciences*, 32, 408-424.
7. Cohen, A. D., & Shively, R. Acquisition of requests and apologies in Spanish and French: Impact of study and strategy-building intervention. 2007. *The Modern Language Journal*, 91(2), 189-212.
8. Green, Georgia M. Pragmatics and natural language understanding. Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates. 1990. *Journal of Language teaching and research*. Academy Publication.
9. House, J. Developing fluency in English as a foreign language: Routines and metapragmatic awareness. *Studies in Second Language Acquisition*: 1996. 18(2), 225-252.
10. Kasper, G. Classroom research on interlanguage pragmatics. In K. R. Rose, and G. Kasper (Eds.), *Pragmatics in language teaching*. 2001. New York: Cambridge University Press. pp. 33-60.
11. Kasper, G. Pragmatic transfer. *Second Language Research*: 1992. 8, 203-231.
12. Krashen, Stephen. *Second Language Acquisition and Second Language Learning*. 1981. Oxford: Pergamon Press.
13. Leech, Geoffrey Neil. *Principles of pragmatics*. New York: 1983. Longman.
14. Omar, A. S. Kiswahili requests: Performance of native speakers and learners. In K. Bardovi-Harlig, J. C. Félix-Brasdefer, & A. S. Omar (Eds.), *Pragmatics and language learning*. Honolulu: 2006. University of Hawai'i, National Foreign Language Resource Center. Vol. 11, pp. 227-252.
15. Rose, K. R. (2009). Interlanguage development in Hong Kong, phase 2. *Journal of Pragmatics*, 41, 2345-2364.
16. Schmidt, R. Interaction, acculturation, and the acquisition of communicative competence: A case study of an adult. In E. Judd & N. Wolfson (Eds.), *Sociolinguistics and language acquisition* 1983. Rowley, MA: Newbury House. pp. 137-174.
17. Shively, R. L. Politeness and social interaction in study abroad: Service encounters in L2 Spanish. 2008. doctoral dissertation, University of Minnesota, Minneapolis.
18. Thomas, Jenny. Cross-Cultural Pragmatic Failure. 1983. *Applied Linguistics* 4:2, 91-120.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.